



KICHIK TADBIRKORLIK EKSPORTINING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA BARQARORLIK MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18920701>

Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich

Namangan davlat universiteti

“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes”

kafedrasi tayanch doktoranti,

katta o'qituvchisi; +99899-321-06-07

abduraxmonov.sherali.86@gmail.com

Soyibjonov Islomjon Sodiqjon o'g'li

Namangan davlat universiteti

“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes”

kafedrasi o'qituvchisi

soyibjonovislombek93@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi va uning uzoq muddatli dinamikasi statistik tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqot 2010–2025-yillar (choraklar kesimida) ma'lumotlariga tayangan holda amalga oshirilib, kichik biznes eksport ulushining vaqt mobaynidagi o'zgarishlari, markaziy tendensiya va tarqoqlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Maqolada kichik tadbirkorlik eksportidagi ijobiy o'sish tendensiyalari mamlakatda olib borilgan institutsional va iqtisodiy islohotlar, xususan, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar, valyuta siyosatini liberallashtirish hamda eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar bilan uzviy bog'liq holda yoritib berilgan. Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan vaqtinchalik pasayishlar statistik jihatdan baholanib, ularning uzoq muddatli o'sish trendiga ta'siri aniqlangan. Bundan tashqari, Namangan viloyati misolida hududiy kesimda kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi tahlil qilinib, hududiy xususiyatlar va barqarorlik masalalari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari kichik tadbirkorlik eksportini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim va istiqbolli yo'nalishi ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik, kichik biznes, eksport, eksport ulushi, tashqi savdo, davlat iqtisodiy siyosati, institutsional islohotlar, valyuta siyosatini liberallashtirish, eksportni qo'llab-quvvatlash, vaqt qatori tahlili, statistik tahlil, hududiy tahlil, Namangan viloyati.



РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЭКСПОРТА МАЛОГО БИЗНЕСА И ВОПРОСЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация: В данной статье на основе статистического анализа исследуется доля малого бизнеса в общем объеме экспорта товаров (работ, услуг) Узбекистана и ее долгосрочная динамика. Исследование проводилось на основе данных за 2010–2025 годы (квартально) и анализировало изменения доли экспорта малого бизнеса во времени, показатели центральной тенденции и дисперсии. В статье освещаются позитивные тенденции роста экспорта малого бизнеса в тесной связи с институциональными и экономическими реформами, проведенными в стране, в частности, указами и постановлениями Президента, либерализацией валютной политики и мерами, направленными на поддержку экспортной деятельности. Также статистически оценивались временные спады, произошедшие во время пандемии COVID-19, и определялось их влияние на долгосрочную тенденцию роста. Кроме того, доля малого бизнеса в экспорте анализировалась в территориальном контексте на примере Наманганской области, выявляя региональные особенности и вопросы устойчивости. Результаты исследования научно обосновывают, что развитие экспорта малого бизнеса является важным и перспективным направлением государственной экономической политики.

Ключевые слова: малое предпринимательство, малый бизнес, экспорт, доля экспорта, внешняя торговля, государственная экономическая политика, институциональные реформы, либерализация валютной политики, поддержка экспорта, анализ временных рядов, статистический анализ, региональный анализ, регион Наманган.

REGIONAL CHARACTERISTICS OF SMALL BUSINESS EXPORTS AND SUSTAINABILITY ISSUES

Abstract: This article studies the share of small businesses in total exports of goods (works, services) in Uzbekistan and its long-term dynamics based on statistical analysis. The study was conducted based on data from 2010–2025 (quarterly), and analyzed changes in the share of small business exports over time, central tendency and dispersion indicators. The article highlights the positive growth trends in small business exports in close connection with the institutional and economic reforms carried out in the country, in particular, the decrees and resolutions adopted by the President, the liberalization of currency policy and measures aimed at supporting export activities. Also, temporary declines that occurred during the COVID-19 pandemic were statistically assessed and their impact on the long-term growth trend was determined. In addition, the share of small



businesses in exports was analyzed in a territorial context using the example of the Namangan region, revealing regional characteristics and sustainability issues. The results of the study scientifically substantiate that the development of small business exports is an important and promising direction of state economic policy.

Keywords: *small entrepreneurship, small business, export, export share, foreign trade, state economic policy, institutional reforms, liberalization of currency policy, export support, time series analysis, statistical analysis, regional analysis, Namangan region.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va jahon xo'jaligi integratsiyasi sharoitida eksport salohiyatini oshirish har bir mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, eksport tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlari ulushining ortib borishi iqtisodiyotda raqobat muhitining kuchayishi, xususiyl sektor faolligining oshishi hamda ishlab chiqarish va tashqi savdoning diversifikatsiyalanayotganidan dalolat beradi. Shu bois kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ishtirokini tahlil qilish va uning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy jihatdan baholash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar, xususan, xususiyl mulkni himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish, tashqi savdo tartib-taomillarini soddalashtirish hamda eksportyorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini sezilarli darajada faollashtirdi. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar kichik biznesning tashqi bozorlarga chiqishidagi

institutsional to'siqlarni bartaraf etish, moliyaviyl va tashkiliyl qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik eksportining rivojlanishi doimiy va bir maromda kechmay, ayrim davrlarda tashqi iqtisodiy sharoitlar, global inqirozlar hamda pandemiya kabi omillar ta'sirida vaqtinchalik tebranishlar bilan tavsiflanadi. Bunday holatlar kichik biznes eksportining barqarorligini statistik tahlil asosida chuqur o'rganishni, uzoq muddatli tendensiyalarni aniqlashni va davlat siyosatining samaradorligini baholashni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushining 2010–2025-yillardagi dinamikasini statistik tahlil qilish, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi asosiy institutsional omillarni aniqlash hamda hududiy kesimda, xususan, Namangan viloyati misolida kichik tadbirkorlik eksportining xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari kichik tadbirkorlik eksportini yanada rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ishtiroki va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Iqtisodiy nazariyada kichik biznes eksporti bozor mexanizmlarining samaradorligi, raqobat muhitining rivojlanishi hamda ishlab chiqarish va savdo jarayonlarining moslashuvchanligini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida kichik va o'rta biznes eksport faoliyatining iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasi, ularning tashqi bozorlarga chiqishdagi cheklovlari va ustunliklari chuqur tahlil qilingan. Jumladan, M.Porter[14], P.Krugman[15], B.Melitz[16][17] kabi iqtisodchilar eksport faoliyatining raqobatbardoshlik va unumdorlik bilan uzviy bog'liqligini nazariy jihatdan asoslab bergan. Melitz modelida eksport bozorlariga kirayotgan firmalarning samaradorligi yuqori bo'lishi ta'kidlanib, kichik biznes uchun institutsional va moliyaviy muhitning ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi.

Klassik iqtisodchilar Richard Kantillon va Adam Smith asarlarida tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslari shakllantirilgan bo'lsa[13], zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni shakllantirish, bandlikni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy diversifikatsiyadagi roli alohida ta'kidlanadi[14][15]. Xalqaro tajriba

kichik tadbirkorlik subyektlarining ning eksportga yo'naltirilgan faoliyati mamlakatning tashqi savdo tarkibini yaxshilash va global bozorlarga integratsiyalashuvini jadallashtirishda muhim katalizator ekanini ko'rsatadi [16].

S.S.G'ulomov ("Tadbirkorlik va kichik biznes")[4] va B.Yu.Xodiev, M.S. Qosimova, A.N. Samadov ("Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik")[6] kabi mahalliy olimlar mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda tadbirkorlikning shakllanish jarayonlarini, uning qiyinchiliklari va istiqbollari o'rganishga qaratilgan asarlar yaratdilar. Ularning ishlari mamlakatimiz iqtisodiyotida xususiy sektorning o'rni va ahamiyatini tushunish uchun asosiy manbalardan hisoblanadi.

U.V.Gafurov ("Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish")[3] nomli doktorlik dissertatsiyasida kichik biznesni rivojlantirishda davlatning tartibga soluvchi rolini chuqur tahlil qilgan. U soliq siyosati, kreditlash mexanizmlari va ma'muriy bariyerlarni bartaraf etish kabi amaliy masalalar bo'yicha takliflar ishlab chiqdi, ular amalda Prezident farmonlari va qarorlarida o'z aksini topgan.

I.E.Kenjaev, M.T.Baltabayev, Sh.Sh.Abduraxmonov ("Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес")[7] va A.M.Siddiqov, M.T.Baltaboyev, Sh.Sh.Abduraxmonov ("Formation and Development of Small Business in Uzbekistan")[8] kabi ilmiy maqolalarda



so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning kichik biznesning rivojlanishiga, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotlar "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida yaratilayotgan qulay investitsion muhitning samaradorligini ilmiy asoslaydi.

Sh.Sh.Abduraxmonov

("O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi") [9] maqolasida mamlakatimizda kichik biznesning joriy holati, eksport salohiyati va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi.

TADQIQOT

METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushini tahlil qilishda iqtisodiy-statistik va empirik tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi iqtisodiy nazariya, xalqaro savdo va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga oid konseptual yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqotda asosiy axborot manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika ma'lumotlari, xususan, 2010–2025-yillar (choraklar kesimida) bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushini aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlar foydalanildi. Hududiy tahlil doirasida Namangan viloyati bo'yicha tegishli statistik ma'lumotlar qo'llanildi. Shuningdek,

eksport faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmon va qarorlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida vaqt qatori tahlili asosiy metod sifatida qo'llanilib, ko'rsatkichlarning dinamikasi, o'sish sur'atlari va trend komponentlari baholandi. Markaziy tendensiya ko'rsatkichlari (o'rtacha arifmetik, median) hamda tarqoqlik ko'rsatkichlari (standart og'ish, variatsiya diapazoni) hisoblandi. Ushbu yondashuv kichik tadbirkorlik eksport ulushining barqarorligi va tebranish darajasini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, solishtirma tahlil usuli yordamida eksport ulushining turli davrlar va hududlar kesimidagi farqlari aniqlanib, respublika va Namangan viloyati ko'rsatkichlari o'zaro qiyoslandi. Grafik va jadval usullaridan foydalanish orqali statistik ma'lumotlar vizual tahlil qilinib, asosiy tendensiyalar aniq ko'rinishda ifodalandi.

Pandemiya davrida yuzaga kelgan vaqtinchalik pasayishlar statistik qator doirasida alohida segment sifatida baholanib, ularning uzoq muddatli trendga ta'siri sifat jihatdan tahlil qilindi. Natijalarni talqin etishda mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya usullari qo'llanilib, statistik xulosalar iqtisodiy mazmun bilan boyitildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi hamda ushbu sektorda band bo'lganlar sonining uzoq muddatli ijobiy dinamikasi O'zbekiston




Respublikasida olib borilayotgan izchil va tizimli iqtisodiy islohotlar natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ijobiy tendensiyalarni mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan strategik ahamiyatga ega farmon va qarorlar bilan bog'liq holda tahlil qilish, kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Avvalo, kichik tadbirkorlikning eksportdagi ulushi ortib borishi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ochiq iqtisodiyot va eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modeli bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqishini kengaytirish va eksportchilarni qo'llab-quvvatlash alohida ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur hujjat kichik tadbirkorlik subyektlari uchun eksport faoliyatini amalga oshirishdagi institutsional va byurokratik to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga zamin yaratdi.

Kichik biznes eksportdagi ijobiy o'sish, ayniqsa, 2018–2024-yillarda

jadallashgani Prezidentimizning valyuta siyosatini liberallashtirishga oid qarorlari bilan chambarchas bog'liqdir. 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-son Farmon asosida milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi joriy etildi. Ushbu islohot kichik tadbirkorlik subyektlari uchun eksport tushumlaridan erkin foydalanish, import qilinadigan xomashyo va texnologiyalarni soddalashtirilgan tartibda xarid qilish imkonini berdi. Natijada kichik biznesning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi oshib, eksportdagi ulushi barqaror ravishda o'sib bordi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning eksportyorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus qarorlari ham ijobiy tendensiyalarning muhim omili hisoblanadi. Xususan, "Eksport faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qabul qilingan qarorlar doirasida kichik tadbirkorlik subyektlariga transport xarajatlarini qisman qoplab berish, sertifikatlash xarajatlarini subsidiyalash, eksportoldi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Statistik jihatdan aynan ushbu mexanizmlar joriy etilgan yillarda kichik tadbirkorlikning eksportdagi ulushi sezilarli darajada oshgani kuzatiladi.



1-grafik. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik sub’ektlarining eksport ulushlari 2010–2024 yillar davomidagi dinamikasi(foizda)[11].

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasi, eksport tarkibining diversifikatsiyasi hamda xususiy sektor faolligini aks ettiruvchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkichning 2010–2025-yillar (choraklar kesimida) bo‘yicha dinamik qatori statistik tahlil qilinar ekan, avvalo uning vaqt mobaynidagi o‘zgarishlari, markaziy tendensiya ko‘rsatkichlari, tarqoqlik darajasi hamda ekstremal qiymatlari baholanadi. Ushbu davrni qamrab olgan statistik ma’lumotlar kichik tadbirkorlikning eksport jarayonlaridagi ishtiroki izchil o‘tib borayotganini, ayrim yillarda esa tashqi va ichki omillar ta’sirida tebranishlar kuzatilganini ko‘rsatadi(1-grafik).

Tahlil qilinayotgan davrda kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi minimal darajada 2010-yilda qayd etilib, 13,7 foizni tashkil etgan. Mazkur holat o‘sha davrda eksport tarkibida yirik davlat va korporativ sektorning ustunligi yuqori bo‘lganligi, kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlanadi. Keyingi yillarda mazkur ko‘rsatkich sezilarli darajada oshib borgan bo‘lib, bu iqtisodiyotda bozor mexanizmlarining chuqurlashuvi, xususiy mulkchilikni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash siyosati bilan uzviy bog‘liqdir[11].

Statistik qator bo‘yicha hisoblangan o‘rtacha arifmetik qiymat 25,6 foizni tashkil etib, bu tahlil qilinayotgan davrda kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy eksportning qariyb chorak qismidan



ortig'ini shakllantirganini ko'rsatadi. Median qiymatning 27,0 foiz darajasida bo'lishi taqsimotning nisbatan simmetrik ekanligini hamda ko'rsatkichlarning asosiy qismi 25–30 foiz oralig'ida jamlanganini anglatadi. Bu holat kichik tadbirkorlik eksportdagi ulushining tasodifiy emas, balki muayyan iqtisodiy tendensiya asosida shakllanayotganidan dalolat beradi.

Tarqoqlik ko'rsatkichlari ham muhim statistik ahamiyatga ega. Standart og'ishning 6,19 foiz punktni tashkil etishi ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatdan ma'lum darajada chetlanishini bildiradi. Bunday tarqoqlik kichik tadbirkorlik eksportining tashqi kon'yunktura, valyuta bozori holati, tashqi savdo siyosati va logistika imkoniyatlariga sezgir ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tarqoqlik darajasining haddan tashqari yuqori emasligi mazkur ko'rsatkichning nisbatan barqaror shakllanganini ham tasdiqlaydi.

Vaqt qatori tahlili shuni ko'rsatadiki, 2013–2019-yillar oralig'ida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi 26–27 foiz atrofida barqarorlashgan. Ushbu davrda ko'rsatkichning keskin tebranishlarsiz saqlanib qolishi eksport tarkibida kichik biznesning mustahkam o'rin egallay boshlaganidan dalolat beradi. Bu jarayon ichki bozorning to'yinganligi sharoitida kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga yo'naltirilgan strategiyalarni faol qo'llay boshlaganini ham ko'rsatadi.

2020–2021-yillarda ko'rsatkichning 20–20,5 foizgacha pasayishi statistik jihatdan muhim burilish nuqtasi

hisoblanadi. Ushbu pasayish global COVID-19 pandemiyasi, xalqaro savdo zanjirlarining uzilishi, transport-logistika xarajatlarining keskin oshishi hamda tashqi talabning qisqarishi bilan izohlanadi. Statistik tahlil nuqtayi nazaridan bu holat vaqt qatorida vaqtinchalik salbiy shok sifatida namoyon bo'ladi va uzoq muddatli trendni inkor etmaydi.

2022-yildan boshlab kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi yana yuqori sur'atlarda o'sib, 2024-yilda 34,1 foizga, 2025-yilning to'rtinchi choragida esa 36,6 foizga yetgan. Bu maksimal qiymat tahlil qilinayotgan davrda kichik tadbirkorlik eksport salohiyatining eng yuqori darajada namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Statistik jihatdan bunday natija davlat tomonidan eksportyor kichik biznesni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

Choraklar kesimidagi ma'lumotlar qisqa muddatli o'zgarishlarni baholash imkonini beradi. 2025-yil davomida chorakdan chorakka o'sish kuzatilishi kichik tadbirkorlik eksportdagi ulushning mavsumiy tebranishlardan ko'ra barqaror o'sish fazasiga kirganini ko'rsatadi. Bu holat statistik qatorning oxirgi segmentida dispersiyaning nisbatan kamayishi bilan ham tasdiqlanadi.

Umuman olganda, statistik tahlil natijalari kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi uzoq muddatli ijobiy tendensiyaga ega ekanini, vaqtinchalik pasayishlar esa tashqi



omillar ta'siri ostida yuzaga kelganini ko'rsatadi. Markaziy tendensiya va tarqoqlik ko'rsatkichlari mazkur indikatorning iqtisodiy mazmunan barqaror va izchil rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Shunday qilib, statistik tahlil kichik tadbirkorlikni eksport jarayonlarida yanada kengroq ishtirok etishini rag'batlantirish iqtisodiy jihatdan asosli va istiqbolli yo'nalish ekanini ilmiy nuqtayi nazardan isbotlaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar sonining ijobiy dinamikasi Prezidentimiz tomonidan olib borilgan bandlik siyosati va tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatida qarash konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, 2020–2024-yillarda amalga oshirilgan “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” va “Mahallabay ishlash tizimi” doirasidagi tashabbuslar kichik biznes subyektlari sonining ko'payishiga, mos ravishda bandlikning oshishiga xizmat qildi. Bu tashabbuslar Prezidentimiz farmon va qarorlari bilan mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, kichik tadbirkorlikni aholi bandligini ta'minlashning asosiy mexanizmlaridan biriga aylantirdi.

Pandemiya davrida (2020–2021-yillar) kichik tadbirkorlikda bandlikning qisqa muddatli pasayishi kuzatilgan bo'lsa-da, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan antikrizis choralar ushbu salbiy holatni tezkor bartaraf etishga imkon berdi. Soliq ta'tili, kredit to'lovlarini kechiktirish, foiz stavkalarini subsidiya qilish, davlat kafolatlari asosida moliyalashtirish mexanizmlarining joriy

etilishi kichik biznes subyektlarining saqlanib qolishiga va ish o'rinlarining tiklanishiga xizmat qildi. Natijada 2022-yildan boshlab kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni yana barqaror o'sish bosqichiga kirdi.

Shuningdek, Prezidentimizning hududiy rivojlanishga oid qarorlari ham kichik tadbirkorlikning eksport va bandlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari va klaster tizimining joriy etilishi hududlarda kichik biznes subyektlarining faoliyatini jonlantirdi. Bu esa bir tomondan yangi ish o'rinlari yaratishga, ikkinchi tomondan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qildi.


Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi 2010–2024 yillar davomida sezilarli o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Tadqiq etilayotgan davrda ushbu ko'rsatkichning o'rtacha darajasi 64 foizdan yuqori bo'lib, bu kichik biznesning viloyat eksportidagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Shu bilan birga, eksport ulushining yillar kesimida notekis shakllanishi kichik tadbirkorlik faoliyatining ichki va tashqi iqtisodiy omillarga yuqori darajada bog'liqligini aks ettiradi(2-grafik).

2010–2012 yillar oralig'ida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport ulushi keskin pasaygan. Jumladan, 2010 yildagi 86,9 foizlik ko'rsatkich 2012 yilda 48,6 foizgacha kamaygan. Mazkur holat global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning kechiktirilgan ta'siri, tashqi bozorlardagi



beqarorlik hamda eksport tarkibida yirik korxonalar ulushining nisbatan ortishi bilan izohlanadi. Bu davrda kichik

biznesning eksport salohiyati yetarli darajada ro'yobga chiqmagan.



2-grafik. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksport ulushlari 2010–2024 yillar davomidagi dinamikasi(foizda)[11].

2013–2019 yillarda esa Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik eksportining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatiladi. 2013 yilda 52,4 foizni tashkil etgan eksport ulushi 2017 yilda 90 foizga yetib, eng yuqori darajani qayd etdi. Ushbu ijobiy dinamika tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar, eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi davlat dasturlari hamda 2017 yildan boshlab amalga oshirilgan valyuta bozorini liberallashtirish siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Aynan shu yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi.

2020–2023 yillar davrida ko'rsatkichlarning keskin pasayishi qayd etilib, 2019 yildagi 81,8 foizlik daraja

2023 yilda 42,5 foizgacha tushib ketdi. Mazkur salbiy holat asosan COVID-19 pandemiyasi oqibatlari, xalqaro savdo aloqalarining cheklanishi, logistika zanjirlaridagi uzilishlar hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi pastligi bilan izohlanadi. Ushbu davr kichik tadbirkorlik eksportining tashqi shoklarga nisbatan qanchalik sezgir ekanini yaqqol namoyon etdi.

2024 yilda esa eksport ulushining 50,4 foizgacha oshishi kichik tadbirkorlik faoliyatida tiklanish jarayonlari boshlanganidan dalolat beradi. Bu holat davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari, eksportchilar uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar hamda kichik biznesning



moslashuvchanlik xususiyati bilan bog'liqdir. Umuman olganda, Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi yuqori bo'lishiga qaramay, uni barqarorlashtirish uchun eksportni diversifikatsiya qilish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda tashqi bozorlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

O'tkazilgan statistik tahlil natijalari O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportdagi ulushi uzoq muddatli ijobiy tendensiyaga ega ekanini ko'rsatdi. 2010–2025-yillar davomida mazkur ko'rsatkichning bosqichma-bosqich o'sib borishi mamlakatda olib borilgan institutsional va iqtisodiy islohotlar, xususan, tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish, valyuta siyosatini liberallashtirish hamda eksportyorlarni qo'llab-quvvatlashga

qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini tasdiqlaydi. Statistik qator tahlili kichik tadbirkorlik eksporti ayrim davrlarda tashqi omillar ta'sirida vaqtinchalik pasayishlarga duch kelgan bo'lsa-da, bu holatlar uzoq muddatli o'sish trendini izdan chiqarmaganini aniqladi.

Markaziy tendensiya va tarqoqlik ko'rsatkichlari kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi nisbatan barqaror shakllanganini, uning iqtisodiy mazmunan tasodifiy emas, balki muayyan rivojlanish tendensiyasi asosida o'sib borayotganini ko'rsatadi. Hududiy tahlil natijalari, xususan, Namangan viloyati misolida, kichik tadbirkorlik eksportining yuqori salohiyatga ega ekanini, biroq ko'rsatkichlarning yillar kesimida notekis shakllanishi eksport faoliyatining tashqi iqtisodiy sharoitlarga sezgirligini namoyon etdi. Bu esa kichik tadbirkorlik eksportini barqarorlashtirish masalasi dolzarbligini bildiradi.

Taklif sifatida quyidagi tadbirlarni keltirishimiz mumkin.



Tadqiqot natijalariga asoslanib, kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushini yanada oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi

1. Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun eksport faoliyatini amalga oshirishdagi institutsional va ma'muriy tartib-taomillarni yanada soddalashtirish, ayniqsa, bojxona va sertifikatlash jarayonlarida raqamlashtirish darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Eksportyor kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, xususan, eksportoldi va eksportdan keyingi moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish hamda sug'urta kafolatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kuchaytirish zarur.

1. Kichik tadbirkorlik eksportining hududiy nomutanosibligini kamaytirish maqsadida hududlar kesimida ixtisoslashgan eksportni rivojlantirish dasturlarini joriy etish, logistika va transport infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Tashqi bozorlardagi talab va kon'yunktura o'zgarishlariga moslashuvchanlikni oshirish uchun kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, tayyor va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini kengaytirish lozim.

1. Kichik tadbirkorlik eksportini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, savdo vakolatxonalari, eksport agentliklari va biznes uyushmalarining axborot-maslahat xizmatlarini yanada faollashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" – T.: 2022 yil 21 dekabr, PF–268-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". – T.: 2022 yil 30 sentyabr, PF–228-son.

3. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dok. diss. –T.: 2017. – 309 b.



4. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: TDAU, 1998.
5. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya – M.: 1982. S. 159.
6. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2010
7. Кенжаев И.Э., Балтабаев М.Т., Абдурахманов Ш.Ш. Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 159-164.
8. Siddikov, A.M., Baltaboev, M.T. and Abduraxmonov , S.S. 2022. Formation and Development of Small Business in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 3, 11 (Nov. 2022), 76-80.
9. Abduraxmonov S. S. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 22. – С. 4-16.
10. Abdulxakimov Z., Abduraxmonov S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari. – 2024.
11. <https://siat.stat.uz/reports-filed/402/table-data>
12. <https://siat.stat.uz/reports-filed/425/table-data>
13. Characteristics of Small Business Development in Uzbekistan. *Semant Journals*. [URL: <https://semantjournals.org/index.php/AJBP/article/download/1599/1261/1357>]
14. Porter, M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. — New York: Free Press, 1990.
15. Krugman, P. R. *Increasing Returns, Monopolistic Competition, and International Trade*. — *Journal of International Economics*, 1979, Vol. 9, No. 4, pp. 469–479.
16. Krugman, P. R., Obstfeld, M., Melitz, M. J. *International Economics: Theory and Policy*. — 10th ed. — Boston: Pearson Education, 2015.
17. Melitz, M. J. *The Impact of Trade on Intra-Industry Reallocations and Aggregate Industry Productivity*. — *Econometrica*, 2003, Vol. 71, No. 6, pp. 1695–1725.